

ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINING BUXGALTERIYA MA'LUMOTLARIGA ASOSLANGAN BAHOLASHNI XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li
Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ichki audit samaradorligini baholashda buxgalteriya ma'lumotlaridan foydalanishning metodologik asoslari hamda xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Ichki auditning moliyaviy shaffoflikni ta'minlashdagi o'rni, audit samaradorligini baholash mezonlari va ularni iqtisodiy-matematik usullar yordamida tahlil qilish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda regressiya va korrelyatsion tahlil, optimallashtirish modellari hamda ekonometrik modellashtirish usullari qo'llanilib, ichki audit samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan. Xalqaro tajriba sifatida COSO modeli, IIA standartlari hamda Sharqiy Osiyo davlatlarining ilg'or yondashuvlari o'rganilib, ularni milliy amaliyotga tadbiq etishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ichki audit tizimini takomillashtirish, buxgalteriya ma'lumotlari asosida samaradorlikni oshirish va korxonalarda optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar.** ichki audit, samaradorlik, buxgalteriya ma'lumotlari, iqtisodiy-matematik usullar, ekonometrik modellashtirish, COSO modeli, IIA standartlari, xalqaro tajriba, moliyaviy shaffoflik, optimal boshqaruv qarorlari.*

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va xalqaro standartlarga mos bo'lgan boshqaruv tizimini shakllantirish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan **“2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”**, shuningdek, **Milliy rivojlanish dasturlari** ichki audit tizimini takomillashtirish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda xalqaro standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur dasturlar doirasida ichki auditning samaradorligini oshirish, audit jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish va iqtisodiy-matematik usullar yordamida moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, **“Raqamli iqtisodiyot”** dasturi asosida buxgalteriya ma'lumotlarini raqamlashtirish va real vaqt rejimida monitoringni yo'lga qo'yish orqali audit jarayonlarining tezkorligi va ishonchliligi oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ****xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)****ni joriy etish bo'yicha bosqichma-bosqich ishlar olib borilmoqda. Bu esa ichki audit samaradorligini oshirishda buxgalteriya ma'lumotlarining sifatini yaxshilash, ularni xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini yaratadi.

Demak, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiy dasturlari va islohotlari ichki audit samaradorligini baholashda xalqaro tajribaga tayanish, iqtisodiy-matematik modellarni keng qo'llash va buxgalteriya ma'lumotlaridan kompleks foydalanishni dolzarb masala

sifatida ilgari surmoqda. Shu asosda ushbu tadqiqot mavzusi amaliy ahamiyatga ega bo'lib, milliy iqtisodiyotimizda moliyaviy shaffoflik va samarali boshqaruvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ichki audit samaradorligini baholash va uni buxgalteriya ma'lumotlari asosida rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda keng tadqiq qilingan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlarda ichki auditning roli, baholash mezonlari va metodologik yondashuvlar o'ziga xos jihatlarga ega. Xalqaro manbalarda masalan COSO (2013) tomonidan ishlab chiqilgan "Internal Control – Integrated Framework" modeli ichki nazorat va audit samaradorligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan konseptual asoslardan biri hisoblanadi. Unda risklarni boshqarish, moliyaviy ma'lumotlarning ishonchliligi va nazorat muhitining samaradorligi asosiy mezon sifatida belgilanadi. Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA, 2020) standartlari esa ichki auditni faqat moliyaviy nazorat vositasi sifatida emas, balki korxonaga strategik boshqaruv tizimining muhim elementi sifatida baholaydi. Arens, Elder va Beasley (2020) esa auditning zamonaviy yondashuvlarini, jumladan, axborot texnologiyalari va avtomatlashtirishning o'rnini alohida ta'kidlaydilar. Mahalliy adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak Jumayev N. (2021) ichki audit tizimini takomillashtirishda normativ-huquqiy asoslar bilan bir qatorda, buxgalteriya ma'lumotlarining sifatini oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Mamatov va Abdurosulova (2022) esa xalqaro buxgalteriya standartlarini milliy amaliyotga tatbiq etish orqali ichki audit samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganadilar.

Ilmiy manbalarda ichki audit samaradorligini baholashda iqtisodiy-matematik usullarni qo'llash tobora kengayib bormoqda. Jumladan, Karimov (2023) ichki audit samaradorligini aniqlashda regressiya va korrelyatsion tahlil, shuningdek, ekonometrik modellashtirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. OECD (2022) esa audit sifatini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqib, ularni xalqaro miqyosda solishtirish amaliyotini taklif etadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki audit samaradorligini oshirishda quyidagi asosiy yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

- ❖ buxgalteriya ma'lumotlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash;
- ❖ audit jarayonlarini iqtisodiy-matematik modellar asosida baholash;
- ❖ raqamli texnologiyalar (Big Data, sun'iy intellekt)dan foydalanishni kengaytirish;
- ❖ xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirish.

Demak, mavzuga oid adabiyotlar ichki audit samaradorligini baholash masalasini nazariy va amaliy jihatdan keng yoritadi, ammo O'zbekiston sharoitida bu jarayonni


yanada chuqurlashtirish va milliy rivojlanish dasturlari bilan integratsiyalash zarurati mavjud.

Ushbu tadqiqotda ichki audit samaradorligini baholashda iqtisodiy-matematik usullar va modellar asosiy metodologik yondashuv sifatida qoʻllanildi. Chunki ichki audit jarayonlari nafaqat sifat jihatidan, balki miqdoriy tahlil talab etadigan murakkab iqtisodiy hodisalar bilan bevosita bogʻliqdir.

Birinchidan, regressiya tahlili yordamida buxgalteriya maʼlumotlaridagi oʻzgaruvchilar, yaʼni daromad, xarajat, foyda, aktivlar va passivlarning ichki audit natijalariga taʼsiri miqdoriy baholandi. Shuningdek, korrelyatsion tahlil orqali moliyaviy koʻrsatkichlar va ichki nazorat samaradorligi oʻrtasidagi bogʻliqlik darajasi aniqlandi. Audit resurslaridan samarali foydalanishni oʻlchash va optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda esa optimallashtirish modellari qoʻllanildi. Ikkinchidan, buxgalteriya maʼlumotlari ichki audit uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi. Shu bois tadqiqotda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi, aktivlar va passivlar tarkibidagi noaniqliklar, daromad va xarajatlarning tarkibi hamda ularning audit samaradorligiga taʼsiri tahlil qilindi. Uchinchidan, metodologiyani ishlab chiqishda xalqaro tajribadan foydalanildi. Jumladan, AQSh va Yevropada qoʻllaniladigan COSO modeli ichki nazorat va audit samaradorligini risklarni boshqarish hamda moliyaviy shaffoflik asosida baholash imkonini beradi. Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA) standartlarida esa audit samaradorligi korxonalar strategik maqsadlariga erishish darajasi bilan bogʻlanadi. Yaponiya va Janubiy Koreyada esa buxgalteriya maʼlumotlarini tahlil qilishda sunʼiy intellekt va Big Dataʼdan foydalanish amaliyoti keng qoʻllanilmoqda. Toʻrtinchidan, tadqiqotda ekonometrik modellashtirishdan foydalanish nazarda tutiladi. Bunda ichki audit samaradorligi integral indeks shaklida olinib, unga buxgalteriya maʼlumotlarining aniqligi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi va audit resurslaridan foydalanish darajasi kabi koʻrsatkichlar taʼsiri aniqlanadi. Natijada ichki audit samaradorligiga eng kuchli taʼsir etuvchi omillar aniqlanib, ular asosida rivojlanish yoʻnalishlari belgilanadi.

COSO modelining shakllari haqida gapirganda, odatda uning tarixiy rivojlanishi va amaliyotda qoʻllaniladigan asosiy konseptual yondashuvlari nazarda tutiladi. COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) tomonidan ishlab chiqilgan model bugungi kunda ichki nazorat, risklarni boshqarish va moliyaviy hisobotning shaffofligini taʼminlashda eng koʻp qoʻllaniladigan konsepsiya hisoblanadi. Uning shakllari bosqichma-bosqich yangilanib, turli talablarga moslashtirilgan. Birinchi shakl – **COSO Internal Control – Integrated Framework (1992 yilgi versiya)**. Bu model ichki nazorat tizimini tashkil etish uchun asosiy yoʻl-yoʻriqlarni bergan. Unda


ichki nazoratning besh asosiy komponenti belgilangan: nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyati, axborot va kommunikatsiya, monitoring. Ushbu besh komponent korxonada va tashkilotlarda ichki nazorat tizimini yaratish va samarali ishlashini ta'minlash uchun yagona metodologiya sifatida tavsiya etilgan. Ikkinchi shakl – **2013 yilgi yangilangan COSO Internal Control Framework**. Bu shaklda 1992 yilgi model qayta ko'rib chiqilib, global amaliyotdagi yangi talablar bilan boyitilgan. Ayniqsa, korporativ boshqaruv, xalqaro moliyaviy standartlar, texnologiyalar va axborot xavfsizligi kabi omillarga katta e'tibor qaratilgan. Bu shakl nazorat tizimini yanada keng qamrovli qilib, ularni tashkilot strategiyasi va maqsadlariga bog'lashga urg'u beradi. Uchinchi shakl – **COSO ERM (Enterprise Risk Management) – 2004 yilgi va 2017 yilgi versiyalar**. COSO modelining ushbu shakli risklarni boshqarish konsepsiyasini kengaytirib, tashkilotning umumiy strategiyasi bilan integratsiyalashuviga alohida ahamiyat qaratadi. 2017 yilgi yangilangan shakl "Integrating with Strategy and Performance" nomi bilan mashhur bo'lib, risklarni boshqarish jarayonini strategik maqsadlar bilan uzviy bog'lashni nazarda tutadi. Bu shakl tashkilotlarga nafaqat risklarni aniqlash va kamaytirishga, balki risklardan imkoniyat sifatida foydalanishga ham yordam beradi. To'rtinchi shakl – **COSO Compliance and Fraud Risk Management Guidance**. Ushbu shakl alohida hujjatlar va ko'rsatmalar orqali korporatsiyalarda firibgarlik xavfini kamaytirish, qonunchilik talablariga rioya qilish va ichki nazoratni kuchaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, global moliyaviy bozorlar va davlat sektori faoliyatida korrupsiya va firibgarlik xavflarini kamaytirish uchun keng qo'llaniladi. Shunday qilib, COSO modelining shakllari ichki nazoratning dastlabki konsepsiyasidan tortib, risklarni strategiya bilan integratsiyalash, firibgarlik xavfini kamaytirish va global standartlarga moslashtirishgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlarini qamrab oladi. O'zbekiston sharoitida esa bu shakllardan ichki nazorat tizimini mustahkamlash, davlat va xususiy sektor samaradorligini oshirish hamda moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda foydalanish mumkin. 1-rasm



1-Rasm. COSO modelining shakllari ichki nazoratning dastlabki konsepsiyasi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, ularning asosiy maqsadi iqtisodiy faoliyatning murakkab va ko‘p qirrali jarayonlarini ilmiy asoslangan holda tahlil qilish hamda natijalardan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanishdir. Mazkur jarayon ichki audit samaradorligini oshirish va uni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, iqtisodiy-matematik usullar yordamida buxgalteriya ma’lumotlari chuqur qayta ishlanadi, ularda yashirin tendensiyalar, moliyaviy risklar va resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanadi. Bu jarayonlar ichki audit tizimida xalqaro standartlarga, jumladan, COSO modeli yoki IIA standartlariga asoslangan baholash mezonlarini joriy etishga imkon beradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy jarayonlarning tezkor o‘zgarishi va yangi xavf-xatarlarning yuzaga kelishi auditorlardan nafaqat an’anaviy tekshiruv metodlarini, balki ilg‘or ekonometrik modellar va statistik baholash usullarini qo‘llashni talab qiladi. Shu tarzda ichki audit samaradorligi nafaqat moliyaviy natijalarni nazorat qilish, balki korxonada faoliyatini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladigan boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratiladi. Xalqaro tajribada, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Yaponiya amaliyotida ichki audit samaradorligini oshirishda iqtisodiy modellashtirish keng qo‘llanilib, u buxgalteriya ma’lumotlariga asoslangan holda biznes jarayonlarining xolisona bahosini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida ham Raqamli iqtisodiyot qonuniyatlari asosida ichki audit tizimiga zamonaviy modellashtirish yondashuvlarini tatbiq etish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki audit samaradorligini oshirishda iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishning o‘ziga xos jihatlari bevosita amaliy natija beruvchi mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki Raqamli iqtisodiyot:



- tavakkalchilik va noaniqlik,
- resurslarning chegaralanganligi,
- raqobat muhitining mavjudligi,
- iqtisodiy ko‘rsatkichlarning istiqbolini oldindan ko‘ra bilish zarurati kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

Shunday sharoitda ichki audit samaradorligini faqat oddiy tekshiruv funksiyasi emas, balki prognostik va analitik boshqaruv vositasi sifatida ko‘rish mumkin. Chunki, birinchidan, bozor tavakkalchilik va noaniqlik elementlariga ega; ikkinchidan, resurslarning chegaralanganligi; uchinchidan, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida raqobatning mavjudligi; to‘rtinchidan, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni istiqboldagi holatini oldindan ko‘ra bilish va boshqalar. Iqtisodiy jarayonlar turli xil va bir-biridan aniq bir belgilari bilan farqlanadi.

Kuzatilayotgan obyektlarni chuqur va har tomonlama o‘rganish maqsadida tabiatda va jamiyatda ro‘y beradigan jarayonlarning modellari yaratiladi. Buning uchun obyektlar hamda ularni xossalari kuzatiladi va ular to‘g‘risida dastlabki tushunchalar hosil bo‘ladi. Bu tushunchalar oddiy so‘zlashuv tilida, turli rasmlar, sxemalar, belgilar, grafiklar orqali ifodalanishi mumkin. Ushbu tushunchalar model deb aytiladi.

Model so‘zi lotincha modulus so‘zidan olingan bo‘lib, o‘lchov, meyor degan ma‘noni anglatadi.

Keng ma‘noda model biror obyektning yoki obyektlar tizimini namunasidir. Model tushunchasi biologiya, meditsina, fizika va boshqa fanlarda ham qo‘llaniladi.

Jamiyatdagi va iqtisodiyotdagi obyektlarni matematik modellar yordamida kuzatish mumkin. Bu tushuncha modellashtirish deyiladi.


Iqtisodiy model - iqtisodiy obyektlarning soddalashtirilgan nusxasidir. Bunda modelning hayotiyliigi, uning modellashtiriladigan obyektga aynan mos kelishi muhim ahamiyatga egadir. Lekin yagona modelda o‘rganilayotgan obyektning hamma tomonini aks ettirish mumkin emas. Shunda jarayonning eng xarakterli va eng muhim belgilari aks ettiriladi.

Ifodalangan model yordamida kuzatilayotgan obyektning bilish modellashtirish deyiladi. Modellashtirish jarayonini sxemasi quyidagicha:

2-rasm. Ichki audit samaradorlik ko‘rsatkichlarini prognozlashtirishda modellashtirish bosqich sxemasi

Bu sxemani asosiy bloki «maqsad» bloki hisoblanadi, chunki qo‘yilgan maqsadga ko‘ra bitta obyekt uchun har xil modellar tuzilishi mumkin. Modellashtirishning universal usul sifatida boshqa usullarga qaraganda afzalliklari mavjud. Ushbu afzalliklar esa quyidagilardan iborat:


I. Avvalo, modellashtirish katta va murakkab tizimni oddiy model yordamida ifodalashga imkoniyat beradi. Masalan, milliy iqtisod bu o‘ta murakkab tizimdir. Uni oddiy qora yashik sxemasi orqali ifodalash mumkin.



yoki:

$$F = f(X_1, X_2, \dots, X_n)$$

Bozor mexanizmini grafik usulda tasvirlash mumkin.



Albatta, bu yerda ko‘p muammolar tug‘iladi. Masalan, modelni qanchalik darajada soddalashtirish mumkin. O‘ta soddalashtirgan model qo‘yilgan talablarga javob bermasligi mumkin va uning yordamida qilingan hisob-kitoblar noto‘g‘ri chiqishi mumkin. O‘ta murakkab model, masalani yechish jarayonida ko‘p qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun modelga faqat obyektning eng asosiy xarakterli, muhim omillarini kiritish zarur.

II. Model tuzilishi bilan kuzatuvchiga tajribalar qilish uchun keng maydon tug‘iladi. Modelning parametrlarini bir necha marta o‘zgartirib, obyektning faoliyatini eng optimal holatini aniqlab, undan keyin hayotda qo‘llash mumkin. Real obyektlar ustida tajriba qilish ko‘plab xatolarga va katta harajatlarga olib kelishi mumkin.

III. Model, noshakl tizimni, matematik formulalar yordamida shakllantirishga imkoniyat beradi va AKTlar yordamida tizimni boshqarishga yordam beradi.

IV. Modellashtirish o‘rganish va bilish jarayonini kengaytiradi. Model hosil qilish uchun obyekt har tomonlama o‘rganiladi, tahlil qilinadi. Model tuzilganidan so‘ng,

uning yordamida obyekt to‘g‘risida yangi ma‘lumotlar olish mumkin. Shunday qilib, obyekt to‘g‘risidagi bilish jarayoni to‘xtovsiz jarayonga aylanadi.

Buxgalteriya ma‘lumotlariga asoslangan baholashni xalqaro tajribalar asosida rivojlanish yo‘nalishlari prognozlashda obyektning xususiyatlari va ko‘rsatkichlariga qarab turli xil usullar qo‘llaniladi. Prognozlashda ekstrapolyatsiya usuli o‘rganiladigan obyektning rivojlanishiga taalluqli bo‘lgan omillarning doiraviylik, o‘zgarmaslik shartiga asoslangan bo‘lib, obyektning o‘tmishdagi va shunga asoslanib kelajakdagi rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Xulosa va takliflar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki audit samaradorligini baholashda buxgalteriya ma‘lumotlarini raqamlashtirish va ularni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. An‘anaviy usullar bilan solishtirganda, raqamli texnologiyalar auditorlarga katta hajmdagi moliyaviy ma‘lumotlarni tezkor tahlil qilish, ularning haqqoniyligini aniqlash, xatolik va soxtalashtirish holatlarini aniqlash imkonini beradi. Bugungi kunda xalqaro tajribada quyidagi texnologiyalar ichki audit samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda bu esa ERP tizimlari (SAP, Oracle, 1C va boshqalar) – buxgalteriya va moliyaviy ma‘lumotlarni yagona elektron bazada jamlash va real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. Sun‘iy intellekt (AI) va mashinaviy o‘rganish – ma‘lumotlar oqimini avtomatik tahlil qilib, g‘ayrioddiy tranzaksiyalarni aniqlaydi va risklarni prognozlaydi. Blockchain texnologiyalari – moliyaviy ma‘lumotlarning o‘zgartirilmasligini va shaffofligini ta‘minlab, audit jarayonida ishonchlilikni oshiradi. Big Data va Business Intelligence tizimlari – katta hajmdagi ma‘lumotlardan samarali foydalanib, boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi. Bulut texnologiyalari (Cloud Computing) – audit jarayonini masofadan turib tashkil etish, resurslarni tejamkorlik bilan boshqarish va xavfsizlikni ta‘minlashga yordam beradi. O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida ichki audit tizimiga ushbu texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, xalqaro standartlarga moslashish va korxonalar faoliyatida shaffoflikni kuchaytirish mumkin. Natijada, ichki audit nafaqat nazorat vositasi, balki prognozlash, risklarni boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda ishonchli manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” PF–60-sonli Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Ichki audit tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2023.
3. International Federation of Accountants (IFAC). *Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements*. – New York, 2021.

4. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). *Internal Control – Integrated Framework*. – USA, 2013.
5. The Institute of Internal Auditors (IIA). *International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing*. – Florida, 2020.
6. Spicer, B. H., & Zubrow, D. *Internal Auditing: Principles and Techniques*. – London: Routledge, 2019.
7. Sawyer, L. B., Dittenhofer, M. A., & Scheiner, J. H. *Sawyer’s Internal Auditing*. – New York: McGraw-Hill, 2018.
8. Arens, A., Elder, R., & Beasley, M. *Auditing and Assurance Services*. – Pearson Education, 2020.
9. Жумаев, Н.Э. “Ички аудит тизимини такомиллаштиришнинг назарий ва амалий асослари”. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2021.
10. Маматов, Р., & Абдурасулова, Д. “Бухгалтерия ҳисоби ва аудитда халқаро стандартларни жорий этиш масалалари”. – *Иқтисодиёт ва таълим журнали*, №2, 2022.
11. Karimov, M. “Application of Econometric Models in Internal Audit Efficiency Assessment”. – *Central Asian Economic Review*, №3, 2023.
12. OECD. *Audit Quality Indicators and Their Relevance for Internal Control Systems*. – Paris, 2022.